

## FUQAROLAR QABULI



### **Fuqarolar qabuli**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining So'x tumani Xalq qabulxonasida navbatdagi fuqarolar qabuli bo'lib o'tdi. O'z muammolari yuzasidan fuqarolar tuman hokimining birinchi o'rinosari Ilhomjon Tojiboyevga murojaat etishdi.

Qabul jarayonida fuqarolar tomonidan moddiy va tibbiy yordam masalalari, tadbirdorlik uchun bank krediti olish, uy-joyni ta'mirlashda ko'maklashish bo'yicha murojaatlari eshitildi.

Barcha murojaatlar tegishli tartibda ro'yxatga olinib, yechimi topilgan murojaatlar joyida hal etildi va ayrim murojaatlar huquqiy maslahat va tushunchalar bilan qoniqtirildi.

Muddat talab etiluvchi murojaatlar esa hal etish uchun tegishli mutasaddilarga biriktirilib, nazoratga olindi.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**



**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-15 17:17:08